

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

G'ayrat MURODOV, Ruxsora IMOMOVA,  
Zarina JALILOVA

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI  
Epik tur janrlari

O'quv qo'llanma

Buxoro  
"Durdona" nashriyoti  
2023

UOK 82.09-32(075.8)

83.3ya73

M 88

Murodov, Gayrat

Adabiyotshunoslik nazariyasi. Epik tur janrlari. [Manji: o'quv qo'llanma / G. Murodov, R. Imomova, Z. Jalllova. - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2023. - 156 b.

KBK 83.3ya73

Ushbu qo'llanmada epik tur janrlari – hikoya va novella, qissa, romanga xos badiiy-poetik xususiyatlar ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Har bir janrning o'ziga xos xususiyatlari, olam va odamni badiiy ifoda etish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Mazkur kitob mualliflarning o'zlar yaratgan tadqiqotlar asosida yozilganmi ham aytish lozim.

Qo'llanma universitet va pedagogika institutlarini o'zbek tili va adabiyoti yo'natishlari talabalariga mo'ljallab yaratildi.

#### Mas'ul muharrir:

D.S. O'rayeva – filologiya fanlari doktori, professor.

#### Taqrizchilar:

A. Xolmurodov – filologiya fanlari doktori, professor.

I. Sharipova – filologiya fanlari doktori.

O'quv qo'llanma Buxoro davlat universitetining 2022-yil 26-dekabrda 587-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro'yxatga olish raqami 587-08.

ISBN 978-9943-9048-3-5

Gayrat Murodov, Ruxsora Imomova, Zarina Jalllova

## KIRISH

Adabiyotshunoslik fanining otasi hisoblangan Aristotel "Poetika" asarida badiiy adabiyotning uchta turga bo'linishini ko'rsatgan edi. Mazkur tadqiqot yaratilganiga ko'p asrlar bo'ldi. Shunga qaramay, buyuk alloma va mutafakkir ko'rsatgan adabiy turlar miqdori hanuzgacha o'zgartgani yo'q. So'z san'ati tarkibidagi lirika, epos va drama o'zining badiiy-poetik xususiyatlarini saqlab kelmoqda.

Ana shu adabiy turlardan biri bo'lgan epos o'z tarkibiga hikoya, qissa, romanni oladi. Bu epik janrlar adabiy-badiiy jarayoning uzoq davom etgan tadrilij taraqqiyoti davomida yuzaga kelgan. Bu o'rinda ushbu janrlarga xos alohida bir xususiyatni aytib o'tish lozim. Adabiyot ilmi tomonidan lirika va dramaning asosiy janrlariga aniq ta'rif va baholar berilgan. Ularni ana shunday ta'riflarga ko'ra qat'iy belgilab olish mumkin. Biroq epik janrlar, xususan, romanga universal va qat'iy ta'rif berish oson emas. Chunki ular vaqt o'tishi bilan o'z badiiy qurilmasini o'zgartirib boradi. Chunonchi, hikoyaga qisqa nasriy janr tarzida qaralar edi. Ammo keyingi paytda hikoyaning hajm jihatidan kengaygani kuzatilmogda. Bu fikrimizga yozuvchi Shukur Xolmuraevning milliy Mustaqillik davrida yaratgan hikoyalari dalil bo'la oladi. Hikoyaga qarama-qarshi ravishda roman esa keyingi o'n yilliklarda kichrayib-ixchamlashib bormogda.

Ushbu o'quv qo'llanmasi filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga epik tur janrlari bo'yicha muayyan bilim berish maqsadida yozildi.

Qo'llanma ti va adabiyot magistri Ruxsora Imomova (hikoya va novella), magistrant Zarina Jalllova (qissa), filologiya fanlari doktori Gayrat Murodov (roman) tomonidan yozildi. Mazkur kitob mualliflarning epik tur bo'yicha yozgan tadqiqotlari asosida yuzaga kelgan.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
Epik turning kichik janrlari: hikoya va novellaning o'ziga xos xususiyatlari .....	4
Qissa janri .....	54
Roman (tarixiy roman misolida) .....	95